

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**EGAMOV SEVINCHBEK MAXSUD O‘G‘LI**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA OLIY  
TA'LIM TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH (XORAZM VILOYATI  
MISOLIDA)**

**08.00.12 - "Mintaqaviy iqtisodiyot"**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etish (Xorazm viloyati misolida).....5

**Эгамов Севинчбек Махсуд угли**

Эффективная организация системы высшего образования для устойчивого развития экономики региона (на примере Хорезмской области).....31

**Egamov Sevinchbek Makhsud ugli**

Effective organization of the higher education system for the sustainable development of the regional economy (on the example of Khorezm region)..... 61

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published articles .....65

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**EGAMOV SEVINCHBEK MAXSUD O‘G‘LI**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA OLIY  
TA'LIM TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH (XORAZM VILOYATI  
MISOLIDA)**

**08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5195 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Otajonov Umid Abdullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Bekjanov Dilmurod Yo'ldoshevich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_:\_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_\_" dagi №\_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I. S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**T. J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi birlashgan ilmiy seminar  
raisi i.f.d., professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sish darajasiga oliy ta'limning ta'siri sezilarli darajada oshmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra jahon mamlakatlari o'rtasida inson kapitaliga investitsiyalari yuqori darajada qilingan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari 2023-yilda o'rtacha 1,5-2 barobarga tezlashgan<sup>1</sup>. UNESCO ma'lumotlariga qaraganda 2023-yilda dunyo YaIMning o'rtacha 5-7 % qismi ta'limni rivojlantirishga sarflangan<sup>2</sup>. Ayniqsa iqtisodiyot raqamlashgani sari oliy ta'limning ahamiyati ortib bormoqda, bunga asosiy sabab sifatida ta'lim tizimining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi malakali ishchi kuchini etishtirib berishda muhim ahamiyat kasb qilishidadir.

Jahon miqyosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali usuli sifatida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim tizimining samaradorligi bilan dunyoga tanilgan Singapur, Janubiy Koreya, Finlandiya kabi bir qancha davlatlarning iqtisodiy o'sishlari bunga misol bo'ladi. Singapurda oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari iqtisodiyotning texnologik va innovatsion rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi<sup>3</sup>. Singapurda oliy ta'limga qilingan investitsiyalar o'tgan davr ichida mamlaktni dunyoning eng qalok mamlakatlari qatoridan hozirda eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shdi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim sohasini rivojlantirish orqali mintaqalar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanib ushbu tizimni rivojlantirish orqali mintaqalar iqtisodiy o'sishiga erishish, texnologiya yutuqlarini, innovatsiyalarni hudud iqtisodiyotiga jalb qilish orqali yuqori texnologik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga raqobatbardosh tovarlarni taklif qilish nazarda tutilgan. Shuningdek, strategiyada iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni oshirish maqsadi qo'yilgan. Bu maqsadga erishishda ta'lim tizimining rivojlanishi va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'limning mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri bevosita ko'rsatilmagan bo'lsada, ta'lim sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi

<sup>1</sup> World Bank (2023). *The Human Capital Project*. Washington, DC: World Bank.

<sup>2</sup> UNESCO (2023). *Global Education Monitoring Report*. Paris: UNESCO Publishing.

<sup>3</sup> Lee, K., & Goh, C. (2021). *Innovation and Economic Development: The Role of Education Systems in Singapore*. Singapore: National University Press

<sup>4</sup> "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi," Prezident matbuot xizmati, president.uz

PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 7-fevralda PQ-62-son “Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni, Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 3-dekabrda 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich uzini uzi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

#### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Mintaqa iqtisodiyotida ta’lim tizimining tutgan ahamiyati, ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha Yevropa va MDH olimlaridan N.V.Long, L.Yang, B.McCall, U.Teichler, B.Poul, S.Marginson, M.Lung, I.Moldovan, N.L.Alexandra, J.Erina, I.Erins, A.Goksu, G.Goksu, I.V.Abankina, V.A.Vinarik, L.M.Filatova, G.A.Lukichev, V.M.Filippov, N.K.Nasibova, A.A.Adambekova<sup>5</sup>, va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan S.Gulyamov, N.Haydarov, T.Malikov, N.Jumaev, A.Vaxobov, M.Saidov, D.Nabiev, D.Raxmonov, X.Rejapov, D.Pulato, Z.Srojiddinova, B.Nurmuxammedov, A.Sherov<sup>6</sup> o‘z tadqiqotlarini olib borgan.

---

<sup>5</sup> Long N.V. “Financing higher education in an imperfect world” *Economics of Education Review* xxx (xxxx) xxx– xxx, Yang L., McCall B. “World education finance policies and higher education access: A statistical analysis of World Development Indicators for 86 countries” *International Journal of Educational Development* 35 (2014) 25– 36, Teichler U. “Recent changes of financing higher education in Germany and their intended and unintended consequences” *International Journal of Educational Development* 58 (2018) 37–46, Bolton Paul. “Tuition Fee Statistics”, Library of the House of Commons, 23 November 2010, page 2, section 1.2., Marginson S. “Global trends in higher education financing: The United Kingdom” *International Journal of Educational Development* 58 (2018) 26–36, Lung M., Moldovan I., Alexandra N. “Financing higher education in Europe: issues and challenges” *Social and Behavioral Sciences* 51 ( 2012 ) 938 – 942, Erina J. and Erins I. “Assessment of Higher Education Financing Models in the CEE Countries” *Social and Behavioral Sciences* 177 ( 2015 ) 186 – 189, Goksu A., Goksu G. “A Comparative Analysis of Higher Education Financing in Different Countries” *Economics and Finance* 26 (2015) 1152 – 1158; Насибова Н.К. Целевой капитал (эндаумент-фонд) как источник финансирования интеллектуального потенциала вуза // ВЕСТНИК ИрГТУ. 2014. №8 (91).; Лукичев Г.А., Филиппов В.М. Системы финансирования высшего образования в зарубежных странах: Учеб. пособие. М.: РУДН, 2008. 194 с.; Адамбекова А.А., Аманкелди Н.А. Финансирование системы образования Казахстана (динамика расходов на образование: отечественный и международный опыт) // Сетевой журнал “Научный результат”. Серия “Экономические исследования”. 2016.Т.2. №1(7).;

<sup>6</sup> С.С. Гулямов ва бошқ. Ўзбекистонда инсон капитали омилларининг ўзаро алоқалари самарадорлиги//Молия. Т., 2014. №4. 119-127 б.; Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия: Дарслик Т.: Noshir, 2011. 316 б.; Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси: Ўқув қўлланма. Т.: Iqtisod-moliya, 2009. 556 б.; Саидов М.Х. Олий

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish yo'llarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan bo'lib aynan oliy ta'limning mintaqa iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq jihatlari chuqur o'rganilmagan.

Tadqiqot ishimizda aynan OTMlarning mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan va bunga ta'lim tizimini samarali tashkil etish yo'llari orqali erishish mumkinligi tadqiq qilingan va oliy ta'lim tizimining kelajakdagi parametrlari ekonometrik modellar yordamida prognoz qilingan. Bu esa, mazkur yo'nalishlarda tadqiqot va izlanishlar olib borishni taqozo qiladi hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'llari va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda ta'lim tizimini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishi va oliy ta'lim xizmatlari o'rtasidagi aloqadorlikni tahlil qilishi;

Oliy ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini ko'rsatib beruvchi omillarni tahlili qilish va baholash;

Mintaqada faoliyat yuritayotgan OTMlarning ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari hamda bilimlar transferiomillarining bevosita ijobiy ta'sir ustuvorligini tavsiflovchi modellar ishlab chiqish;

Mintaqada mavjud oliy ta'lim muassasalarining "Moliyaviy barqarorlik" indeksini ishlab chiqish va intervallar yordamida baholash;

Ta'lim sohasidagi xizmarlar hajmi, asosiy kapitalga investitsiyala, ta'lim sohasida hisoblangan o'rtacha ish haqi kabi muhim omillarning yalpi hududiy mahsulotga uzoq va qisqa muddatli ta'sirlarini aniqlash;

Mintaqada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan asosiy ko'rsatkichlarining prognozlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** oliy ta'lim muassasalari faoliyatida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarkibiy, tizimli, mantiqiy yondashuvlar, guruhlash, solishtirma tahlil, statistik tahlil, klasterli tahlil, korrelyatsion

---

таълим тизимида молиявий бошқарув: Ўқув қўлланма.Т.: Tafakkur-Bo'stoni, 2011., 432 б.; Набиев Д. Таълим соҳасидаги инвестицияларни молиялаштириш масалалари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун таёрланган диссертация. Т., 2005.; Раҳмонов Д. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришни такомиллаштиришнинг методологик асослари. Т.: Fan va texnologiyalar, 2017. 248 б.; Пулатов Д., Нурмухаммедова Б. Ҳазначилик: Дарслик. Т.: Sano-standart, 2014. 272 б.; Sherov A.B "Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llar" mavzusida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati 56 bet, Toshkent 2020-yil.

va regression tahlil, SEM modeli va bir qancha ekonometrik modellar hamda prognozlash usullardan samarali foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiy o'sishiga faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati (dedication to teaching), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (research and development) hamda bilimlar transferi (knowledge transfer) omillarning bevosita ijobiy ta'sir ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli taklif etilgan;

mintaqada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining "Moliyaviy barqarorlik" indeksini "past (0 – 33,3)", "o'rta (33,3 – 66,6)", "yuqori (66,6 - 100)" intervallar yordamida baholash taklif etilgan;

ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi omillarining yalpi hududiy mahsulot hajmiga mos ravishda qisqa muddatli (+0.91%; +0.72%; +1.02%) va uzoq muddatli (+3.15%; +2.48%; +3.54%) ta'sir darajasini aniqlash modeli taklif etilgan;

mintaqa ta'lim tizimini rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Mintaqada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati (dedication to teaching), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (research and development) hamda bilimlar transferi (knowledge transfer) omillarning mintaqa iqtisodiy o'sishiga bevosita ijobiy ta'siri asoslab berilgan;

Mintaqadagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorlik darajasini baholash hamda ular orasidagi tafovutlarni aniqlashning takomillashtirilgan usuli asoslab berilgan;

mintaqa ta'lim tizimini rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning mintaqa iqtisodiy taraqqiyotiga uzoq va qisqa muddatli ta'sirini hisoblash va bu orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun aniq instrumentlarni belgilash imkoniyati yaratilgan;

mintaqa ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining ko'p variantli ekonometrik modellar asosida o'rta muddatli davrga prognoz qiymatlari hisoblab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Dissertatsiya tadqiqotida qo'llanilgan usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, o'tkazilgan tadqiqotlarning iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining ma'lumotlariga asoslanganligi, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilot va idoralar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mintaqada oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda takliflar mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda, raqobatbardoshligini oshishi, oliy ta'lim xizmatlarini samarali tashkil qilishda, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

dasturlarini va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** mintaqada oliy ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish orqali hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish, oliy ta'lim xizmatlarini takomillashtirish orqali mintaqqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 24 dekabrda PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqa iqtisodiy o'sishiga faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati (dedication to teaching), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (research and development) hamda bilimlar transferi (knowledge transfer) omillarning bevosita ijobiy ta'sir ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli bo'yicha berilgan taklifi Xorazm viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 158-son qarorining ijrosi haqidagi 449-12-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 21-yanvardagi 7-214-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati (dedication to teaching), ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (research and development) hamda bilimlar transferi (knowledge transfer) omillarning mintaqqa iqtisodiy o'sishiga bevosita ijobiy ta'sirini aniqlash imkonini bergan;

mintaqada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining "Moliyaviy barqarorlik" indeksini "past (0 – 33,3)", "o'rta (33,3 – 66,6)", "yuqori (66,6 - 100)" intervallar yordamida baholash bo'yicha berilgan taklifi Xorazm viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 158-son qarorining ijrosi haqidagi 449-12-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 21-yanvardagi 7-214-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqadagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorlik darajasini baholash hamda ular orasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini bergan;

ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi omillarining yalpi

hududiy mahsulot hajmiga mos ravishda qisqa muddatli (+0.91%; +0.72%; +1.02%) va uzoq muddatli (+3.15%; +2.48%; +3.54%) ta'sir darajasini aniqlash modeli bo'yicha berilgan taklifi Xorazm viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 158-son qarorining ijrosi haqidagi 449-12-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 21-yanvardagi 7-214-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaq ta'lim tizimini rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning mintaq iqtisodiy taraqqiyotiga uzoq va qisqa muddatli ta'sirini hisoblash va bu orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun aniq instrumentlarni belgilash imkonini bergan;

mintaqa ta'lim tizimini rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini o'rta muddatli davrga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini ishlab chiqish bo'yicha berilgan takliflar Xorazm viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 158-son qarorining ijrosi haqidagi 449-12-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 21-yanvardagi 7-214-son ma'lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijasini amaliyotda qo'llash orqali mintaq ta'lim tizimini rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini o'rta muddatli davrga prognozlashning qo'shimcha imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, (4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 115 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda ta‘lim tizimini samarali tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida “ta‘lim sifati” tushunchasining mazmun-mohiyati, rivojlanish bosqichlari, oliy ta‘limning mintaqaviy xususiyatlari, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishda xorij mamlakatlari tajribalari tadqiq qilingan.

Hozirgi kunga kelib dunyo mamlakatlarining rivolanish darajasi bevosita ushbu mamlakatlarning ta‘lim tizimi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ta‘lim tizimining samaradorligi esa o‘z navbatida mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga ta‘sir qiladi. Mamlakat ta‘lim tizimida ayniqsa Oliy ta‘lim muassasalarining ahamiyati yuqori hisoblanadi bunga asosiy sabab ushbu dargohlarda iqtisodiyotda mavjud muammolarga ilmiy asoslangan echimlar ustida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boriladi. Shu davrgacha ushbu sohada dunyo mamlakatlaridan bir qancha olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarini olib borgan va tadqiqot natijalari asosida ilmiy tavsiyalar berib o‘tishgan.

Tadqiqot ishimiz mavzusiga qaraydigan bo‘lsak bu yerda ta‘lim sifati tushunchasiga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim, shu sababli ta‘lim xizmatlarini samarali tashkil etishga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganishdan oldin oliy ta‘lim samaradorligi tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb topdik va quyidagi jadvalda oliy ta‘lim samaradorligiga oid bir qator olimlar turli ta‘riflar va tushunchalarni umumlashtirdik.

### 1-jadval

#### Oliy ta‘lim samaradorligiga oid ayrim ta‘riflar va qarashlar<sup>7</sup>


No	Tarif va qarashlarning mazmuni	Olimlar va ilmiy tadqiqot ishlari
1	Ta‘lim samaradorligi o‘qituvchi va talabalarning faol interaktiv muloqati negizida o‘lchanadi, samaradorlikning ortishi tanlangan metodlar va texnologiyalarga bog‘liq	<b>Laurillard, D.</b> (1993). <i>Rethinking University Teaching: A Framework for the Effective Use of Educational Technology</i> . Routledge.
2	Ta‘lim samaradorligi OTMLarga kirish imkoniyatlari va sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq, ta‘lim tizimini uchta toifaga elita, mass, universal darajalarga bo‘lib o‘rganilgan.	<b>Trow, M.</b> (1974). <i>Problems in the Transition from Elite to Mass Higher Education</i> . Berkeley, CA: Carnegie Commission on Higher Education.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

3	Ta'lim samaradorligi talabalarning ta'lim jarayonida qay darajada qamrab olinishi bilan o'lchanadi, samaradorlikning o'lchashda asosiy mezonlar ta'lim muhiti, o'qish natijalari, kirish imkoniyatlari.	<b>Astin, A. W.</b> (1984). <i>Student Involvement: A Developmental Theory for Higher Education. Journal of College Student Personnel</i> , 25(4), 297-308.
4	Ta'lim samaradorligi o'quv dasturlarining sifati, baholash tizimi, o'qitish metodlari bilan o'lchanadi, ta'lim tizimining barcha komponentlarining integratsiyasi samaradorlikni oshiradi.	<b>Biggs, J.</b> (2003). <i>Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does.</i> McGraw-Hill Education.
5	Ta'lim samaradorligi ilmiy va amaliy faoliyatning uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi, ta'lim dargohlari nafaqat ta'lim berish balki tadqiqot va jamoatchilik bilan aloqa qilish orqali samaradorlikni orttiradi	<b>Boyer, E. L.</b> (1990). <i>Scholarship Reconsidered: Priorities of the Professoriate.</i> Princeton University Press.
6	Ta'lim samaradorligi o'quv natijalari orqali namoyon bo'ladi, samaradorlikni oshirish uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish imkoniyatiga erishish kerak.	<b>Kuh, G. D.</b> (2001). <i>Assessing What Really Matters to Student Learning: Inside the National Survey of Student Engagement. Change: The Magazine of Higher Learning</i> , 33(3), 10-17.

Ushbu jadvalda keltirilgan ta'riflar imliy tadqiqotlar dunyosida eng keng tarqalganlari hisoblanib turli olimlar tomonidan turli davr va makonlarda tadqiq qilingan.

Oliy ta'lim muassasalari tarixdan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos ahamiyat kasb qilib kelgan. Iqtisodiy rivojlanish va oliy ta'lim tizimining o'zaro bog'liqligi innovatsiyalar, inson kapitalining rivojlanishi, malakali ishchi kuchini tayyorlash kabi masalalarda namoyon bo'lishi mumkun. Barqaror o'sish muhitini yaratishda muhim afzallik shundaki, mamlakat sog'liqni saqlash, ilm-fan, boshqaruv, ta'lim va boshqa sohalarda yuqori sifatli inson kapitaliga ega. Bu erda inson kapitali komponentlari asosan insonlardan iborat bo'lsa-da, hozirgi kunda asosiy component - ijodiy, bilimli va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega shaxsdir. Ko'plab mamlakatlarda inson kapitali rivojlanish suratini, iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyotni belgilaydi. Inson kapitali va iqtisodiy o'sish bog'liqliklarini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkun



### **1-chizma. Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri<sup>8</sup>**

Universitetlar ishchi kuchi bozorida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ish o'rinlarini yarata oladi. To'g'ridan-to'g'ri ish o'rinlari bu OTMlarning o'zida yaratilgan ish o'rinlari ya'ni ishchi hodimlar, o'qituvchilar hisoblansa, bevosita universitetdan tashqarida oziq-ovqat, transport, universitetlar atrofidagi chakana savdo xizmatlari, sanoat rivojlanishiga sabab bo'ladi va bu o'z navbatida yangi ish o'rinlariga zamin yaratadi. Ko'pchilik olimlarning ilmiy ishlarida universitetlar tomonidan ish o'rinlari yaratilishi kamida uchta yo'nalish orqali amalga oshirilishi takidlab o'tilgan. Bular:

-universitetlar o'z hajmini, xizmat doirasini faoliyatini kengaytirgan sayin OTMning o'zida ishchi kuchiga talabning ortishi;

-OTMlarda shakllanuvchi tadbirkorlik faoliyati, startaplar, inkubatorlar, texnologiya va tadqiqot parkalari orqali yaratilgan ish o'rinlari;

-universitetlarda olingan bilimlar asosida keyinchalik ishlab chiqarishda yaratilgan ish o'rinlari.

Yuqorida keltirib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun avvalo ushbu jarayonni qanday darajada borishini kuzatish imkonini beruvchi ya'ni baholash mexanizmi mavjud bo'lishi zarur hisoblanadi. Hozirgi globallashtirish jarayonida milliy va xalqaro darajadagi OTM larni baholash reytinglari universitetlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Dastavval dunyo miqiyosida emas milliy miqiyosdagi OTM

<sup>8</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

reytinglari o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa XXI asrga kelib ushbu xalqaro darajadagi reytinglar rivojlana boshladi va kun sayin ularning ahamiyati ortib bormoqda.

## 2-jadval

### Oliy ta‘lim muassasalari reytinglarining rivojlanish bosqichlari<sup>9</sup>

Davr	Amalga oshirilgan ishlar
1-bosqich 1900-yillar	Mahalliy reytinglarning shakllanish davri bo‘lib, ushbu baholashda asosiy ko‘rsatkich bo‘lib mamlakat ichkarisida erishilgan akademik yutuqlar hisoblangan, ushbu davrda universitetlar asosan tarixiy ahamiyati, o‘qituvchilarning sifati va nufuzi asosida baholangan.
2-bosqich 1983-yil	“U.S. News & World Report” ilk rasmiy reytingning joriy etilishi, ushbu reytingning asosiy baholash omillari bo‘lib universitet prezidentlari, dekanlari va xodimlaridan olingan so‘rovnomalar bo‘lib shu orqali akademik obro o‘lchanar edi. Keyinchalik baholash metodologiyalarining rivojlanishi bilan ushbu reyting o‘z ichiga talabalar soni, ularning ishga joylashuvi, o‘qituvchilar salohiyati, moliyaviy resurslar kabi omillarni ham qamrab olgan aynan ushbu davr xalqaro reytinglar poydevori bo‘lgan.
3-bosqich 2003-yil	Ushbu davr global reytinglarni boshlanish davri hisoblanib, ushbu bosqichda Shanxay Jia Tong universiteti tomonidan ARWU (Academic ranking of world universities) baholash reytingi joriy qilindi. Ushbu reyting butunjahon universitetlarini taqqoslash orqali ilm-fan rivojiga yanada katta hissa qo‘shdi. Ushbu reyting asosiy baholash me‘zonlari sifatida ilm-fan yutuqlariga katta urg‘u berdi, ayniqsa Nobel mukofotlari lauriyatlarini, ilmiy jurnallarda chop qilingan ilmiy maqolalar va ularga keltirilgan iqtiboslar soni kabi akademik ko‘rsatkichlar yuqori ahamiyat kasb qildi.
4-bosqich 2004-yil	QS (Quacquarelli Symonds) va THE (Times Higher Education) hamkorlikda hozirgi kunda eng nufuzi yuqori hisoblangan QS reytingiga asos solindi. Ushbu reyting asosiy omillari sifatida o‘qituvchilar va talabalar nisbati, ilmiy ishlarga berilgan iqtiboslar soni, xalqaro talabalar va o‘qituvchilar nisbati kabi bir qator yangi mezonlarni kiritdi.
5-bosqich 2010-yil	Ushbu davrda THE (Times higher education) QS xalqaro reytingidan ajralib chiqdi va Thomson Reuters bilan hamkorlikda o‘z reyting tizimini nashr eta boshladi. Ushbu reyting oldingi reytinglarni zaifliklarini bartaraf qilish maqsadida ilmiy yutuqlardan tashqari sanoat bilan uyg‘unlikga ham ahamiyat qarata boshladi
6-bosqich 2011-2019-yillar	Global reytinglar muvafaqqiyatli faoliyati yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng ushbu reytinglar asosida aniq bir yo‘nalishlar bo‘yicha reytinglar tashkil qilina boshlandi masalan QS tomonidan 2011-yilda aniq soha bo‘yicha reyting tashkil qilingan bo‘lsa 2019-yilda THE retingi

<sup>9</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif ishlanmasi

	tomonidan OTM larning BMT ning barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq baholovchi reyting ishga tushurildi.
7-bosqich 2019-2024- yillar	Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi universitetlarini yaxshiroq ifodalash maqsadida bir nechta mintaqaviy reytinglar rivojlana boshladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turganidek OTMlarni baholovchi reytinglar bugungi darajaga etgunga qadar bir nechta davrlarni bosib o‘tgan va asosiy rivojlanish bosqichlari XXI asrga to‘g‘ri keladi. Bu kabi xalqaro reytinglarning joriy qilinishiga o‘zi asosiy sabablar nimalardan iborat bo‘lgan va ulardan ko‘zlangan maqsad nima ekanligiga quyidagicha izoh berib o‘tildi.

Dissertatsiyaning “**Mintaqada ta’lim tizimi rivojlanishining asosiy omillari tahlil**”, deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqada oliy ta’lim tizimi rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili, mintaqadagi davlat va nodavla oliy ta’lim muassasalarini “moliyaviy barqarorlik” indeksini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanishlar shuningdek, mintaqa OTMlarining ta’lim sifati, ilmiy-tadqiqot faoliyati, bilimlar transferi kabi omillarni iqtisodiy o‘shiga bevosita va bilvosita ta’sir darajalarini aniqlovchi SEM (Structural Equation Modeling) modellari tadqiq qilingan.

Mazkur tadqiqot mintaqadagi davlat va nodavlat OTMlarining ta’lim sifati, ilmiy faoliyati va bilimlar transferining iqtisodiy o‘shiga ta’sirini Struktur tenglamalar modelidan (SEM) foydalanib baholashga qaratilgan. SEM modeli bu omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni (bevosita va bilvosita ta’sirlarni) tahlil qilish uchun samarali vosita bo‘lib, ta’lim va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi sabab-natija bog‘liqliklarini aniqlashga yordam beradi. Mazkur munosabatlarni aniqlashda SPSS, AMOS dasturiy paketlaridan samarali foydalanildi. 2020-2025-yillarda Scopus, Springer, Web of Science, ResearchGate xalqaro nufuzli ilmiy bazalardagi jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar mazkur omillarning iqtisodiy o‘shiga ta’sirini ko‘pincha innovatsiyalar, inson kapitali va institutsional omillar orqali tahlil qilgan. Quyida ushbu tadqiqotlarga asoslangan holda gipotezalar shakllantirildi va sinovdan o‘tkazildi.

$H_1$  (*bevosita ta’sir*): Ta’lim sifatining (DT) yuqori darajasi mintaqa iqtisodiy o‘shiga (REG) bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki yuqori malakali ishchi kuchi mahsuldorlikni oshiradi (DT → REG);

$H_2$  (*bilvosita ta’sir*): Ta’lim sifati (DT) bilimlar transferi (KT) orqali mintaqa iqtisodiy o‘shiga (REG) bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (DT → KT → REG);


$H_3$  (*bilvosita ta’sir*): Ta’lim sifati (DT) ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) orqali mintaqa iqtisodiy o‘shiga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (DT → RD → REG).

$H_4$  (*bevosita ta’sir*): Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga (RD) kiritilgan investitsiyalar mintaqa iqtisodiy o‘shiga (REG) bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki yangi texnologiyalar va mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. (RD → REG);

$H_5$  (*bilvosita ta’sir*): Ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) bilimlar transferi (KT) orqali mintaqa iqtisodiy o‘shiga (REG) bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (RD → KT → REG);

$H_6$  (*bevosita ta’sir*): Bilimlar transferining (KT) yuqori darajasi mintaqa iqtisodiy o‘shiga (REG) bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u innovatsiyalarni tijoratlashtirishni tezlashtiradi. (KT → REG).

Yuqoridagi gipotezalarga asoslangan holda shakllantirmoqchi bo'lgan SEM modelining konseptual asosini quyidagi rasmda ifodalab olamiz (1-rasm) .



1-rasm.

SEM

modelining konseptual asosi<sup>10</sup>

Mazkur tadqiqot ishimizdagi Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) Maksimal ehtimollik baholash (MLE - Maximum Likelihood Estimation) usuli bilan baholanadi. Model quyidagi tenglamalarni o'z ichiga oladi:

$$RD = \alpha_1 + \beta_1 * DT + \epsilon_1 \quad (1)$$

$$KT = \alpha_2 + \beta_2 * DT + \beta_3 * RD + \epsilon_2 \quad (2)$$

$$REG = \alpha_3 + \beta_4 * DT + \beta_5 * RD + \beta_6 * KT + \epsilon_3 \quad (3)$$

**bu yerda:**  $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3$  – ozod had,  $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4, \beta_5, \beta_6$  – to'g'ridan – to'g'ri ta'sir (direct effect) ni ifodalovchi koeffitsiyentlar,  $\epsilon_1, \epsilon_2, \epsilon_3$  – xatolik (error term).

Model adekvatligi natijalari odatda Kronbax alfa koeffitsiyenti (Cronbach's Alpha), Chi-kvadrat testi (Chi-square test), CFI (Comparative Fit Index), TLI (Tucker-Lewis Index), RMSEA (Root Mean Square Error of Approximation) va SRMR (Standardized Root Mean Square Residual) lar baholanadi. Quyidagi jadvalda modelning adekvatligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qiymatlari berilgan (3-jadval).

<sup>10</sup> Manba: Muallif ishlanmasi

**Model adekvatligini ifodalovchi ko'rsatkichlar natijalari<sup>11</sup>**

Ko'rsatkich	Qiymat
Chi-square	188.93
p-value	0.000
Cronbach's Alpha	DT=0.82
	RD=0.85
	KT=0.87
	REG=0.88
CFI	0.92
TLI	0.90
RMSEA	0.06
SRMR	0.05

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Chi-kvadrat testi qiymati 188.93 ga teng, bu juda katta qiymat bu  $H_0$  gipotezaning rad etilish ehtimolini oshiradi ya'ni o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjudligini ifodalaydi. Barcha latent o'zgaruvchilar uchun Kronbax alfa koeffitsiyenti 0.8 dan yuqori bo'lib, bu ko'rsatkichlarning ichki mustahkamligi yuqori ekanligini va o'lchovlarning ishonchliligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari CFI, TLI, RMSEA, SRMR ko'rsatkichlarining son qiymati ham modelning ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini ko'rsatadi.

Endi shakllantirilgan Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) natijalariga to'xtalib o'tamiz (4-jadval).

**Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) modelining baholash natijalari<sup>12</sup>**

Gipotezalar	Bog'liqlik	Koeffitsiyent	Standart xatolik	C.R. (Critical Ratio)	P-value	Natija
$H_1$	DT → REG	0.438	0.127	3.4488	0.001***	Qabul qilindi
$H_2$	DT → KT → REG	0.205	0.101	2.0297	0.042**	Qabul qilindi
$H_3$	DT → RD → REG	0.051	0.023	2.2174	0.027**	Qabul qilindi
$H_4$	RD → REG	0.045	0.021	2.1429	0.032**	Qabul qilindi
$H_5$	RD → KT → REG	0.222	0.108	2.0556	0.040**	Qabul qilindi
$H_6$	KT → REG	0.549	0.146	3.7603	0.000***	Qabul qilindi

Izoh: \*, \*\*, \*\*\* - mos ravishda 10%, 5%, 1% statistik jihatdan ahamiyatlilik darajalari

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>12</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

Yuqorida 4-jadvaldagi koeffitsiyentlarni interpretatsiya qiladigan bo'lsak,  $H_1$  gipotezaga ko'ra, Ta'lim sifati mintaqa iqtisodiy o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim sifatinin (DT) bir birlikka yaxshilanishi mintaqa iqtisodiy o'sishini (REG) ni 0.438 birlik oshiradi. Ya'ni, yuqori sifatli ta'lim (masalan, malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy o'quv dasturlari) mintaqada ish o'rinlari yaratilishi, investitsiyalar jalb qilinishi va iqtisodiy faollikning oshishiga bevosita hissa qo'shadi.

$H_2$  gipotezaga ko'ra, Ta'lim sifati (DT) bilimlar transferi (KT) orqali mintaqa iqtisodiy o'sishiga (REG) bilvosita ta'sir qiladi.  $DT \rightarrow KT$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 0.374$ ) ta'lim sifatinin bilimlar transferini kuchaytirishini,  $KT \rightarrow REG$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 0.549$ ) esa bilimlar transferining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatadi. Bilvosita effekt ( $0.374 \times 0.549 = 0.205$ ) ushbu zanjirning umumiy ta'sirini aks ettiradi. Bu holat ta'lim sifati universitetlar, tadqiqot markazlari va sanoat o'rtasidagi bilim almashinuvini (masalan, texnologiya transferi, start-uplar) rag'batlantiradi, bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Bu universitetlarni sanoat bilan yaqinroq hamkorlik qilishga undash muhimligini ko'rsatadi.

$H_3$  gipotezaga ko'ra, Ta'lim sifati (DT) ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) orqali mintaqa iqtisodiy o'sishiga (REG) bilvosita ta'sir qiladi.  $DT \rightarrow RD$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 1.124$ ) ta'lim sifatinin ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishini,  $RD \rightarrow REG$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 0.045$ ) esa ilmiy-tadqiqot faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatadi. Bilvosita effekt ( $1.124 \times 0.045 = 0.051$ ) ushbu zanjirning ta'sirini aks ettiradi. Yuqori sifatli ta'lim ilmiy-tadqiqot faoliyatini (masalan, yangi texnologiyalar ishlab chiqish, patentlar) kuchaytiradi, bu esa iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Bu ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan dasturlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

$H_4$  gipotezaga ko'ra, Ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) mintaqa iqtisodiy o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir birlik RD o'sishi (masalan, ilmiy loyihalar sonining ko'payishi) REG ni 0.045 birlik oshiradi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati (masalan, innovatsion mahsulotlar, yangi texnologiyalar) mintaqada iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu ilmiy-tadqiqot markazlariga investitsiyalarni ko'paytirish va tadqiqot natijalarini sanoatga integratsiya qilish muhimligini ko'rsatadi.

$H_5$  gipotezaga ko'ra, Ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) bilimlar transferi (KT) orqali mintaqa iqtisodiy o'sishiga (REG) bilvosita ta'sir qiladi.  $RD \rightarrow KT$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 0.405$ ) ilmiy-tadqiqot faoliyatining bilimlar transferini kuchaytirishini,  $KT \rightarrow REG$  yo'nalishidagi koeffitsiyent ( $\beta = 0.549$ ) esa bilimlar transferining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatadi. Bilvosita effekt ( $0.405 \times 0.549 = 0.222$ ) ushbu zanjirning ta'sirini aks ettiradi. Ilmiy-tadqiqot natijalari (masalan, patentlar, texnologiyalar) sanoatga uzatilganda iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Bu ilmiy-tadqiqot va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

$H_6$  gipotezaga ko'ra, Bilimlar transferi (KT) mintaqa iqtisodiy o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir birlik KT o'sishi (masalan, universitet-sanoat hamkorligining kuchayishi) REG ni 0.35 birlikka oshiradi. Bilimlar transferi (masalan, texnologiya uzatish, start-uplar yaratish) iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Bu universitetlar va biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish strategiyalarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tasdiqlangan bevosita va bilvosita ta'sir darajalaridan kelib chiqib,

➤ Ta'lim sifati (DT) ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD), bilimlar transferi (KT) omillarining mintaqa iqtisodiy o'sishiga (REG) umumiy ta'sir darajalarini hisoblaymiz:

➤ Ta'lim sifati (DT) ning umumiy ta'siri:  $DT \rightarrow REG$  (to'g'ridan-to'g'ri,  $\beta = 0.438$ ) +  $DT \rightarrow KT \rightarrow REG$  (bilvosita,  $\beta = 0.205$ ) +  $DT \rightarrow RD \rightarrow REG$  (bilvosita,  $\beta = 0.051$ ) +  $DT \rightarrow KT \rightarrow RD \rightarrow REG$  (bilvosita,  $\beta = 0.250$ ) =

$0.438 + 0.205 + 0.051 + 0.250 = 0.944$ . Bu ta'lim sifatining mintaqa iqtisodiy o'sishiga umumiy ta'sirining katta ekanligini ko'rsatadi.

➤ Ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) ning umumiy ta'siri:  $RD \rightarrow REG$  (to'g'ridan-to'g'ri,  $\beta = 0.045$ ) +  $RD \rightarrow KT \rightarrow REG$  (bilvosita,  $\beta = 0.222$ ) =  $0.045 + 0.222 = 0.267$ . Ilmiy-tadqiqot faoliyati ham iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shadi.

Bilimlar transferi (KT) ning umumiy ta'siri:  $KT \rightarrow REG$  (to'g'ridan-to'g'ri,  $\beta = 0.549$ ). Bilimlar transferi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir orqali muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazaridan oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik deganda ushbu muassasalarning uzoq muddatli moliyaviy sog'lom saqlash, moliyaviy majburiyatlarini bajarish va akademik missiyalarini samarali qo'llab-quvvatlash qobiliyati tushuniladi. Bu esa resurslarni samarali boshqarish, daromad oqimlarini yaratish, xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. To'g'ri moliyaviy boshqaruv oliy ta'lim muassasalarining tobora murakkab va raqobat muhitida hayotiyliigi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Mazkur tadqiqot ishimizni asosini tashkil etuvchi bir qancha tadqiqotlar natijalariga tayangan holda biz mintaqamizdagi 7 ta davlat va nodavlat OTMLar uchun "moliyaviy barqarorlik" indeksini ishlab chiqdik. Mazkur indeksni ishlab chiqishda OTMLarining 2021-2024-yillar davr oralig'idagi moliyaviy ko'rsatkichlaridan foydalandik. Biz asosan "moliyaviy barqarorlik" indeksini ishlab chiqishda ikkita ko'rsatkichga tayandik. Bular quyidagilar:

1. Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi ( $MQD$ );

2. Rentabellik darajasi ( $RD$ ).

Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi ( $MQD$ ) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$MQD = \frac{YD}{UX} \quad (4)$$

bu yerda:  $MQD$  – majburiyatlarni qoplay bilish darajasi;

$YD$  – yalpi daromad;

$UX$  – umumiy xarajatlar.

Rentabellik darajasi ( $RD$ ) ni esa quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$RD = \frac{YD-UX}{YD} \quad (5)$$

bu yerda:  $RD$  – rentabellik darajasi;

$YD$  – yalpi daromad;

$UX$  – umumiy xarajatlar.

Keyingi bosqichda yuqoridagi (1) va (2) formulalardan foydalangan holda "moliyaviy barqarorlik ( $MBI$ )" indeksini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$MBI = (MQD)^{\omega_1} * (RD)^{\omega_2} \quad (6)$$

bu yerda: *MBI* – moliyaviy barqarorlik indeksi;  
*MQD* – majburiyatlarni qoplay bilish darajasi;  
*RD* – rentabellik darajasi;  
 $\omega_1$  – *MQD* ko'rsatkichining vazni;  
 $\omega_2$  – *RD* ko'rsatkichining vazni.

Tadqiqot ishimizda mintaqamizda o'rganilayotgan to'plam sifatida tanlab olingan 8 ta davlat va nodavlat OTMlarning bizga zarur moliyaviy ko'rsatkichlarni normallashtirib olamiz. Buning uchun Normallashtirishni “Z-ball normallashtirish (Z-score Normalization)” usulidan foydalanamiz. Normallashtirishdan asosiy maqsad indeksni hisoblashda qaysidir ko'rsatkichlar bo'yicha oldinda yoki qaysidir ko'rsatkichlar bo'yicha esa pastda bo'lgan OTMlar o'rtasida keskin farqlarni keltirib chiqarmasdan balki OTMlar moliyaviy barqarorlik darajasini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Z-ball normallashtirish (Z-score Normalization) formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Z = \frac{X - \mu}{\sigma} \quad (7)$$

bu yerda: *Z* – ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati;  
*X* – ko'rsatkichning haqiqiy qiymati;  
 $\mu$  – o'rganilayotgan to'plam bo'yicha ko'rsatkichning o'rtacha qiymati;  
 $\sigma$  – o'rganilayotgan to'plam bo'yicha ko'rsatkichning standart xatoligi.

Yuqoridagi formulalar asosida olib borgan hisob-kitob natijalari asosida 7 ta davlat va nodavlat OTMlari uchun 2021-2024 davr oralig'i uchun “moliyaviy barqarorlik” indeksi shakllantirildi (5-jadval)

### 5-jadval

#### Mintaqadagi davlat va nodavlat OTMlari uchun “moliyaviy barqarorlik” indeksi<sup>13</sup>

OTMlar nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Ma'mun universiteti	19,56	39,67	44,53	27,50
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	84,00	74,38	52,34	33,75
Urganch davlat pedagogika instituti	31,56	47,11	41,41	28,33
Urganch davlat tibbiyot instituti	23,56	52,07	28,91	42,50
Urganch davlat universiteti	44,89	44,63	34,38	25,42
Urganch Innovatsion Universiteti	36,89	90,91	70,31	60,83
Urganch RANCH texnologiya universiteti	24,00	38,02	39,06	24,58

“Moliyaviy barqarorli” indeksi tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, past indeksga ega bo'lgan OTMlarning deyarli barchasida “Rentabellik darajasi” ko'rsatkichi juda past darajada ekanligidan. Indeksda yuqori natijani qayd etgan

<sup>13</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

OTMlarda esa “Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi” va “Rentabellik darajasi” ko‘rsatkichlarini ikkalasi ham juda baland ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha tadqiqot ishimizda yuqorida “moliyaviy barqarorlik” indeksi bo‘yicha olingan natijalarimizga asoslangan holda davlat oliy ta‘lim muassasalarini “moliyaviy barqarorlik” indeksini “yuqori (66,6 - 100)”, “o‘rta (33,3 – 66,6)”, “past (0 – 33,3)” intervallar yordamida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada ta‘lim tizimini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari va istiqbollari”**, deb nomlangan uchinchi bobida ta‘lim tizimini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillarni YaHM hajmiga uzoq va qisqa muddatli ta‘sirini ifodalovchi avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL) ishlab chiqilgan, shuningdek, mintaqa innovatsion taraqqiyot darajasini ta‘lim tizimi rivojlanish bilan o‘zaro ijobiy ta‘sirga ega ekanligi aniqlangan, hamda ta‘lim tizimi rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rta muddatga mo‘ljallangan prognoz qiymatlarini ko‘p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar aks ettirilgan.

Mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga ta‘lim tizimining ayrim ko‘rsatkichlarini uzoq va qisqa muddatli ta‘sirini aniqlash maqsadida “Avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL)” dan foydalandik. Ushbu modelni shakllantirishda natijaviy va ta‘sir etuvchi omillar sifatida quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil – Yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd.so‘m – (*GRP*), ta‘sir etuvchi omillar – ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd.so‘m – (*EduSeVol*), asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd.so‘m – (*FCI*), ta‘lim sohasidagi nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi, so‘m – (*EduW*).

O‘zgaruvchilarning o‘lchov birligi turlicha bo‘lgani hamda ko‘p omilli ekonometrik modelning interpretatsiyasini (talqini) yaxshiroq tushuntirish uchun barcha omillar qiymatlarini natural logarifmlaymiz.

Ma‘lumki ko‘p omilli ekonometrik modellarni tuzish uchun avval vaqtli qatorlar seriyasida (modelda ishtirok etayotgan omillar uchun) avtokorrelyatsiya mavjud yoki mavjud emasligi aniqlash maqsadida “Ljung-Box” (*Q*)<sup>14</sup> testidan foydalaniladi. Vaqtli qatorlarda avtokorrelyatsiyaning mavjud bo‘lishi mazkur vaqtli qatorlarni statsionarlikka tekshirishni talab etadi. So‘ngra o‘zgaruvchilarning statsionarligini tekshirish va ularni integratsiya qilish tartibini aniqlash uchun Augmented Dickey-Fuller (ADF)<sup>15</sup> va Phillips-Perron (PP)<sup>16</sup> birlik ildiz testlari qo‘llaniladi.

Keyingi bosqichda o‘zgaruvchilarning statsionarligini tekshirish va ularni integratsiya qilish tartibini aniqlash uchun Augmented Dickey-Fuller (ADF) va Phillips-Perron (PP) birlik ildiz testlarini o‘tkazish muhimdir. O‘zgaruvchilarni statsionarlikka tekshirish natijalari quyidagi jadvalda berilgan (6-jadval).

<sup>14</sup> Ljung, G.M., Box, G.P.E. (1978). On a measure of lack of fit in time series models. *J Biometrika* 65:297–303. <https://doi.org/10.1093/biomet/65.2.297>

<sup>15</sup> Dickey, D. A., and Fuller, W. A. (1981). Likelihood ratio statistics for autoregressive time series with a unit root. *Econometrica: journal of the Econometric Society*, 1057-1072. <https://doi.org/10.2307/1912517>

<sup>16</sup> Phillips, P.C.B., Perron, P. (1988). Testing for a unit root in time series regression, *Biometrika*, Volume 75, Issue 2, June, Pages 335–346, <https://doi.org/10.1093/biomet/75.2.335>

## 6-jadval

O'zgaruvchilarni statsionarlikka tekshirishda "ADF" va "PP" birlik ildiz testi natijalari<sup>17</sup>

	Augmented Dickey-Fuller (ADF)				Integratsiya qilish tartibi (Order of integration)
	O'z darajasida (Levels)	Ehtimollik (Probability)	Birinchi tartibli differentsiatsiya (1 <sup>st</sup> differences)	Ehtimollik (Probability)	
<i>LOG(GRP)</i>	-2.61	0.28	-4.70	0.01	I (1)
<i>LOG(EduSeVol)</i>	-3.03	0.07	-3.12	0.03	I (1)
<i>LOG(FCI)</i>	-3.22	0.06	-3.51	0.04	I (1)
<i>LOG(EduW)</i>	-3.82	0.05	-4.47	0.02	I (1)

	Phillips-Perron (PP)				Integratsiya qilish tartibi (Order of integration)
	O'z darajasida (Levels)	Ehtimollik (Probability)	Birinchi tartibli differentsiatsiya (1 <sup>st</sup> differences)	Ehtimollik (Probability)	
<i>LOG(GRP)</i>	-3.71	0.06	-5.68	0.00	I (1)
<i>LOG(EduSeVol)</i>	-2.13	0.28	-3.67	0.05	I (1)
<i>LOG(FCI)</i>	-2.33	0.19	-3.51	0.04	I (1)
<i>LOG(EduW)</i>	-5.75	0.00	-10.03	0.00	I (1)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra yalpi hududiy mahsulot hajmi, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi o'zgaruvchilarining barchasi 1-tartibli differentsiatsiyasida statsionar ekan. Shuning uchun mazkur o'zgaruvchilarning barchasini tenglamaga integratsiya qilish tartibi I (1) sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, modelda ishtirok etayotgan o'zgaruvchilarni "lag (kechikish)" tartibini tanlash zarur hisoblanadi. Buning uchun vektorli avtoregressiv (VAR) modelining optimal "lag" tartibi qo'llaniladi. Avtoregressiv lagli taqsimot modeli uchun "Akaike mezoni (AIC)", "Shvars mezoni (SC)" hamda "Xannan – Quinn (HQ)" mezonlari asosida "lag (kechikish)" tartibi 1 ni tashkil etmoqda.

O'zgaruvchilar orasida uzoq va qisqa muddatli munosabatlarni topishdan oldin kointegratsiya mavjudligini tasdiqlash zarur. Buning uchun "Bog'liqlik testi (Bound test)" dan foydalangan holda amalga oshirildi (7-jadval).

## 7-jadval

"Bog'liqlik testi (Bound test)" natijalari<sup>18</sup>

Statistik test (Test Statistic)	Qiymat (Value)	Ahamiyatlilik darajasi (Significant)	Quyichegara (Lower bound) I(0)	Yuqorichegara (Upper bound) I(1)
F-statistic	25.74287	10%	2.676	3.586
		5%	3.272	4.306

<sup>17</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

<sup>18</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mukinki, F-statistika qiymati barcha ahamiyatlilik darajalarida asimptotik kritik qiymatlarning “Yuqori chegarsi (Upper bound)” dan katta. Bu holat esa kointegratsiya mavjudligini hamda uzoq va qisqa muddatli tenglamalarni shakllantirish mumkinligini ifodalaydi.

Olib borilgan hisob-kitoblar asosida uzoq va qisqa muddatli tenglamalar natijalari quyidagi jadvalda berilgan (8-jadval).

### 8-jadval

#### ARDL (1, 1, 1, 1) modeli asosida hisoblangan parametrlarni uzoq va qisqa muddatli ta’sirlarni baholash natijalari<sup>19</sup>

Dependent Variable: $LOG(GRP)$				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
<b>Uzoq muddatli ta’sir</b>				
$LOG(EduSeVol)$	3.159051	1.213786	2.602642	0.0353**
$LOG(FCI)$	2.487669	1.025946	2.424756	0.0458**
$LOG(EduW)$	3.546783	1.33113	2.664490	0.0323**
$C$	1.011892	17.63763	0.057371	0.9559
<b>Qisqa muddatli ta’sir</b>				
$\Delta LOG(EduSeVol)$	0.914871	0.187658	4.875204	0.0018***
$\Delta LOG(FCI)$	0.720437	0.165231	4.360181	0.0033***
$\Delta LOG(EduW)$	1.027160	0.352413	2.914648	0.0225**
$ECM(-1)$	-0.221951	0.044553	-4.981715	0.0016***

Izoh: \*,\*\*,\*\*\* - mos ravishda 10%; 5%; 1% darajalari uchun statistik ahamiyatli.

Yuqoridagi 8-jadvalga ko‘ra, hisoblangan uzoq muddatli ta’sirining empirik natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmini 1% ga oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 3,15% ga, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 1% ga ko‘tarilishi yalpi hududiy mahsulot hajmi hajmini 2,48% ga oshishiga shuningdek, ta’lim sohasidagi nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqini 1% ga ko‘tarilishi esa yalpi hududiy mahsulot hajmi hajmini 3,54% ga oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, qisqa muddatli ta’sirini ifodalovchi barcha koeffitsiyentlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rish muki. Bu holat esa, koeffitsiyentlarni barchasini iqtisodiy jihatdan to‘liq interpretatsiya qilish mumkinligini asoslaydi. Qisqa muddatli ta’sirni ifodalovchi empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1% ga oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 0,91% ga, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 1% ga ko‘tarilishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 0,72% ga oshishiga shuningdek, ta’lim sohasidagi nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi 1% ga ko‘tarilishi esa yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,02% ga oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

<sup>19</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

$ECM(-1)$  (Error-correction Mechanisms)<sup>20</sup> o'zgaruvchilar orasidagi nomutanosiblik salbiy ta'sirlardan keyin ularning uzoq muddatli muvozanatiga qayta tiklanish tezligini ko'rsatadi. Bizning tadqiqot ishimizdagi tahlil natijalarimizga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi o'zgaruvchilari orasidagi nomutanosiblikni bartaraf qilib uzoq muddatli muvozanatga erishish uchun har yili 22% (0.22) qayta tiklanish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot ishimizda mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichlarining istiqboldagi 2025–2030-yillarga prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda asosan quyidagi ekonometrik modellardan foydalanildi:

1. Chiziqli regressiya modeli;
2. ARIMA (Autoregressive integrated moving average).

Chiziqli regressiya modelini shakllantirishda 2010-2024-yillar ya'ni 15 yillik davr oralig'ini qamrab olgan quyidagi ko'rsatkichlar natijaviy va ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi: natijaviy omil – ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd.so'm – (Y), ta'sir etuvchi omillar – ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi, so'm – (X<sub>1</sub>), ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar soni — (X<sub>2</sub>), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming.so'm — (X<sub>3</sub>), OTM bitiruvchi talabalari soni, kishi – (X<sub>4</sub>).

Shuningdek, vaqtli qatorlar tipidagi ma'lumotlarni o'rta muddatli davrga prognozlashda ARIMA (Autoregressive integrated moving average) modelidan keng foydalaniladi.

Prognozlashni ARIMA (Autoregressive integrated moving average) ya'ni "Sirg'aluvchi o'rtachaga integrallashgan avtoregression" modelida (p,d,q) tartibi mavjud bo'lib, bunda p-avtoregressiya parametrini, d-integratsiyalash qismini, q-sirg'aluvchi o'rtacha parametrini ifodalaydi. ARIMA modelini umumiy ko'rinishi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_t = \alpha + \varphi_1 Y_{t-1} + \dots + \varphi_p Y_{t-p} + \epsilon_t + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \dots + \theta_q \epsilon_{t-q} \quad (8)$$

ARIMA (Autoregressive integrated moving average) modelida prognozlash uchun dastavval mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi mazkur ko'rsatkichlarining har biri uchun ARIMA modeli shakllantirish zarur hisoblanadi.

Mavjud statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan hisob – kitob natijalari asosida mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarini prognozlashga asoslangan "ARIMA" modellari shakllantirildi (9-jadval).

<sup>20</sup> Gherghina, Ş.C. (2023). A Vector Error Correction Model (VECM) Approach. In: Quantitative Methods in Finance. Sustainable Finance. Springer, Cham. pp.87-127, [https://doi.org/10.1007/978-3-031-43864-6\\_3](https://doi.org/10.1007/978-3-031-43864-6_3)

**Mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi  
asosiy ko'rsatkichlarini prognozlashga asoslangan "ARIMA" modellari  
natijalari<sup>21</sup>**

<b>Dependent variable: (1-L) (Y)</b>					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	75.6702	31.1246	2.4312	0.0150	**
phi_1	0.8858	0.1493	5.9311	0.0000	***
theta_1	-0.2785	0.1551	-1.7954	0.0726	*
Mean dependent var	61.63571		S.D. dependent var		63.92914
Mean of innovations	8.498429		S.D. of innovations		42.69065
R-squared	0.978708		Adjusted R-squared		0.976934
Log-likelihood	-72.94557		Akaike criterion		153.8911
Schwarz criterion	156.4474		Hannan-Quinn		153.6545
<b>Dependent variable: (1-L) (X<sub>1</sub>)</b>					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	229239	70447.1	3.254	0.0011	***
phi_1	0.541858	0.243150	2.228	0.0258	**
Mean dependent var	219620.4		S.D. dependent var		157015.1
Mean of innovations	6465.237		S.D. of innovations		129708.2
R-squared	0.984624		Adjusted R-squared		0.984624
Log-likelihood	-184.8615		Akaike criterion		375.7231
Schwarz criterion	377.6402		Hannan-Quinn		375.5456
<b>Dependent variable: (1-L) (X<sub>2</sub>)</b>					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	14.5994	5.95425	2.4519	0.0142	**
phi_1	0.14915	0.05516	2.7040	0.0069	***
Mean dependent var	14.71429		S.D. dependent var		30.32752
Mean of innovations	0.029536		S.D. of innovations		28.85219
R-squared	0.801861		Adjusted R-squared		0.801861
Log-likelihood	-66.94699		Akaike criterion		139.8940
Schwarz criterion	141.8112		Hannan-Quinn		139.7165
<b>Dependent variable: (1-L) (X<sub>3</sub>)</b>					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	1517.41000	490.306	3.0948	0.0020	***
phi_1	0.75592	0.34284	2.2049	0.0275	**
theta_1	-0.54461	0.17293	3.1492	0.0016	***
Mean dependent var	1521.821		S.D. dependent var		1206.281
Mean of innovations	73.43673		S.D. of innovations		1108.552
R-squared	0.976020		Adjusted R-squared		0.974021
Log-likelihood	-118.0855		Akaike criterion		244.1711
Schwarz criterion	246.7273		Hannan-Quinn		243.9345
<b>Dependent variable: (1-L) (X<sub>4</sub>)</b>					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	562.368	212.164	2.6506	0.0080	***
phi_1	0.683972	0.23372	2.9264	0.0034	***
theta_1	-0.598896	0.32965	1.8168	0.0693	**
Mean dependent var	537.0714		S.D. dependent var		1301.123

<sup>21</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

Mean of innovations	20.99210	S.D. of innovations	1246.662
R-squared	0.752342	Adjusted R-squared	0.731704
Log-likelihood	-119.6708	Akaike criterion	247.3416
Schwarz criterion	249.8978	Hannan-Quinn	247.1049

Yuqoridagi 9-jadvaldagi determinatsiya koeffitsiyenti, standart xatoliklar, F-Fisher, t-Styudent, Akaike, Shvars mezonlari ko'rsatkichlari shakllantirilgan modelning statistik jihatdan ahamiyatli va adekvatligini ifodalamoqda.

Demak yuqorida shakllantirilgan modellardan olib borilgan hisob – kitob natijalari mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarini prognozlashda to'liq foydalanish mumkinligini asoslaydi. Mazkur ko'rsatkichlarning 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari quyidagi jadvalda berilgan (10-jadval).

### 10-jadval

#### Mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarni prognozlashga asoslangan “ARIMA” va “Chiziqli regressiya” ekonometrik modellarning qiyosiy natijalari<sup>22</sup>

ARIMA (1 1 1) modeli bo'yicha				
Yillar		Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	1038.3	42.7	(954.6; 1122.0)
2026		1182.8	80.8	(1024.4; 1341.2)
2027		1319.5	122.1	(1080.1; 1558.9)
2028		1449.2	145.7	(1163.7; 1734.7)
2029		1572.7	148.5	(1281.6; 1863.8)
2030		1690.8	150.1	(1396.5; 1985.1)
ARIMA (1 1 0) modeli bo'yicha				
Yillar		Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	Ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi, so'm	3798357.1	129708.2	(3544129.1; 4052585.1)
2026		4098913.7	238371.2	(3631706.2; 4566121.2)
2027		4366796.5	336898.5	(3706475.5; 5027117.5)
2028		4616974.9	342772.8	(3945140.2; 5288809.6)
2029		4857559.8	350263.4	(4171043.6; 5544076.0)
2030		5092946.6	358954.1	(4389396.6; 5796496.6)
ARIMA (1 1 0) modeli bo'yicha				
Yillar		Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	Ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar soni, birlik	398	28.9	(341.1; 454.2)
2026		412	34.0	(345.5; 478.6)
2027		427	38.4	(351.3; 502.0)
2028		441	42.0	(359.0; 523.5)
2029		456	44.3	(369.0; 542.7)
2030		470	46.8	(378.8; 562.1)
ARIMA (1 1 1) modeli bo'yicha				
Yillar		Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq

<sup>22</sup> Manba: muallif ishlanmasi.

2025	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming.so‘m	25301.7	1108.6	(23128.9; 27474.5)
2026		27101.4	1741.3	(23688.5; 30514.3)
2027		28832.2	1911.3	(25086.1; 32578.3)
2028		30510.9	2142.0	(26312.6; 34709.2)
2029		32150.3	2340.2	(27563.6; 36737.0)
2030		33759.9	2509.3	(28841.7; 38678.1)
<b>ARIMA (1 1 1) modeli bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025	OTM bitiruvchi talabalari soni, kishi	10486	1246.7	(8042.0; 12929.0)
2026		11200	1339.6	(8574.8; 13826.0)
2027		11867	1527.1	(8874.1; 14860.3)
2028		12501	1755.1	(9060.9; 15940.9)
2029		13112	1941.2	(9307.3; 16916.9)
2030		13708	2194.9	(9405.9; 18009.9)
<b>Chiziqli model bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025	Ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd.so‘m	693.3	137.0	(397.4; 989.2)
2026		748.0	140.1	(445.3; 1050.7)
2027		802.7	143.6	(492.5; 1112.9)
2028		857.4	147.3	(539.1; 1175.6)
2029		912.1	151.3	(585.2; 1238.9)
2030		966.8	155.5	(630.8; 1302.7)
<b>Chiziqli model bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025	Ta‘lim sohasidagi nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi, so‘m	3088856.7	325855.3	(2385009.2; 3792704.2)
2026		3295357.1	333405.1	(2575202.0; 4015512.2)
2027		3501857.6	341645.7	(2763902.8; 4239812.4)
2028		3708358.00	350528.4	(2951216.6; 4465499.4)
2029		3914858.4	360005.8	(3137246.0; 4692470.8)
2030		4121358.9	370032.0	(3322089.9; 4920627.9)
<b>Chiziqli model bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025	Ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlar soni, birlik	359	42.4	(267.5; 450.7)
2026		372	43.4	(278.3; 465.8)
2027		385	44.5	(288.9; 481.0)
2028		398	45.6	(299.3; 496.4)
2029		411	46.9	(309.6; 512.0)
2030		424	48.2	(319.7; 527.8)
<b>Chiziqli model bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming.so‘m	22259.8	2321.5	(17244.6; 27275.1)
2026		23793.2	2375.3	(18661.8; 28924.7)
2027		25326.6	2434.0	(20068.4; 30584.9)
2028		26860	2497.3	(21465.0; 32255.0)
2029		28393.4	2564.8	(22852.6; 33934.3)
2030		29926.8	2636.2	(24231.6; 35622.0)
<b>Chiziqli model bo‘yicha</b>				
<b>Yillar</b>		<b>Prognoz qiymat</b>	<b>Standart xatolik</b>	<b>95% oraliq</b>
2025		6691	1987.2	(2398.0; 10984.3)

2026	OTM bitiruvchi talabalari soni, kishi	7098	2033.3	(2705.5; 11490.7)
2027		7505	2083.5	(3003.9; 12006.2)
2028		7912	2137.7	(3293.8; 12530.2)
2029		8319	2195.5	(3575.9; 13062.0)
2030		8726	2256.6	(3850.8; 13601.1)

Solishtirma natijalariga ko‘ra ARIMA modeli asosida hisoblangan prognoz qiymatlar va ularning standart xatoliklari eng kichik qiymatga ega bo‘lishi, shuningdek, ushbu prognoz qiymatlarni ishonchlilik intervallariga tushishi orqali real jarayonga to‘la mos kelishi mazkur mintaqa oliy ta’lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o‘zida aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari aynan ARIMA modeli bo‘yicha ishonchli ekanligini asoslaydi.

## XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Oliy ta'limi tizimi ma'lumki mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim hisoblanadi chunki oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari birinchidan, mintaqa iqtisodiyotidagi turli soha va tarmoqlarga malakali kadrlar tayyorlashda ikkinchidan, ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion loyihalar ishlab chiqish orqali mintaqa iqtisodiyoti sektorlariga ilm talab texnologiyalarni tadbiq etishda, uchinchidan, professor-o'qituvchilar va talabalar integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan turli xil startap loyihalar orqali mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirishda, to'rtinchidan, xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yilishi orqali mintaqa imidjini yanada oshirishda, beshinchidan, talabalarga bilim va ko'nikmalar berish orqali ijtimoiy barqarorlikni yanada faollashtirish va bu orqali mintaqaning uzoq muddatda barqaror rivojlanishiga munosib hissalarini qo'shishadi;

2. Miqdoriy jihatdan SEM modeli natijalari shuni ko'rsatadiki, Ta'lim sifati (DT) Mintaqa iqtisodiy o'sishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi (umumiy ta'sir: 0.944), undan keyin Bilimlar transferi (KT) (umumiy ta'sir: 0.549) va Ilmiy-tadqiqot faoliyati (RD) (umumiy ta'sir: 0.222) keladi. Har bir omilning 1 birlikka o'sishi (yaxshilanishi) Mintaqa iqtisodiy o'sishini 0.222 – 0.944 birlikka oshiradi, bu ta'lim va ilmiy-tadqiqot sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish, universitet-sanoat hamkorligini rivojlantirish va bilimlar transferini rag'batlantirish orqali mintaqa iqtisodiy o'sishini tezlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu aniqlangan miqdoriy ko'rsatkichlar siyosat ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari uchun strategik qarorlar qabul qilishda aniq instrumentlar bo'lib xizmat qiladi;

3. "Moliyaviy barqarorli" indeksi tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, past indeksga ega bo'lgan OTMlarning deyarli barchasida "Rentabellik darajasi" ko'rsatkichi juda past darajada ekanligidan. Indeksda yuqori natijani qayd etgan OTMlarda esa "Majburiyatlarni qoplay bilish darajasi" va "Rentabellik darajasi" ko'rsatkichlarini ikkalasi ham juda baland ekanligi aniqlangan;

4. Ta'lim tizimining ayrim ko'rsatkichlarini mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga uzoq va qisqa muddatli tendensiyalarini baholovchi avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL) ishlab chiqildi;

5. Hisoblangan uzoq muddatli ta'sirining empirik natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmini 1% ga oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 3,15% ga, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 1% ga ko'tarilishi yalpi hududiy mahsulot hajmi hajmini 2,48% ga oshishiga shuningdek, ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini 1% ga ko'tarilishi esa yalpi hududiy mahsulot hajmi hajmini 3,54% ga oshishiga sabab bo'lishi mumkin;

6. Qisqa muddatli ta'sirni ifodalovchi empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1% ga oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 0,91% ga, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 1% ga ko'tarilishi yalpi hududiy mahsulot hajmini 0,72% ga oshishiga shuningdek, ta'lim sohasidagi nominal

hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi 1% ga ko'tarilishi esa yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,02% ga oshishiga sabab bo'lishi mumkin;

7. *ECM(-1)* (Error-correction Mechanisms) o'zgaruvchilar orasidagi nomutanosiblik salbiy ta'sirlardan keyin ularning uzoq muddatli muvozanatiga qayta tiklanish tezligini ko'rsatadi. Bizning tadqiqot ishimizdagi tahlil natijalarimizga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi o'zgaruvchilari orasidagi nomutanosiblikni bartaraf qilib uzoq muddatli muvozanatga erishish uchun har yili 22% (0.22) qayta tiklanish zarurligini anglatadi;

8. Mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichlarining istiqboldagi 2025-2030-yillarga prognoz qiymatlari "Chiziqli regressiya modeli" va "ARIMA (Autoregressive integrated moving average)" lar asosida ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan prognoz qiymatlarning solishtirma natijalari asosida, ARIMA modeli bo'yicha hisoblangan prognoz qiymatlar va ularning standart xatoliklari eng kichik qiymatga ega bo'lishi, shuningdek, ushbu prognoz qiymatlarni ishonchlilik intervallariga tushishi orqali adekvat ekanligi mintaqa oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari aynan ARIMA modeli bo'yicha ishonchli ekanligi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАНА БЕРУНИ**

**ЭГАМОВ СЕВИНЧБЕК МАХСУД УГЛИ**

**ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО  
ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ  
РЕГИОНА (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**08.00.12 – Региональная экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ургенч – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5195.**

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Ибадуллаев Эргаш Бактурдиевич**  
доктор философии по экономическим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:** **Отажонов Умид Абдуллаевич**  
доктор экономических наук, доцент

**Бекжанов Дилмурод Юлдашевич**  
доктор философии по экономическим наукам, доцент

**Ведущая организация:** **Наманганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ : \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни. (зарегистрирована за номером \_\_\_\_\_). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.

(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года).

**И. С. Абдуллаев**  
Председатель научного совета, по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**Т. Ж. Рахимов**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
PhD., доцент

**Б. Рузметов**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях глобализации в мире влияние высшего образования на уровень экономического роста стран заметно возрастает. Согласно данным Всемирного банка, в странах с высокими инвестициями в человеческий капитал темпы экономического роста в 2023 году ускорились в среднем в 1,5–2 раза<sup>23</sup>. По данным ЮНЕСКО, в 2023 году в среднем 5–7 % от мирового ВВП было направлено на развитие образования<sup>24</sup>. Особенно на фоне цифровизации экономики значение высшего образования продолжает возрастать, что обусловлено прежде всего тем, что оснащённая современными технологиями система образования играет ключевую роль в подготовке квалифицированной рабочей силы.

Во всём мире значение развития системы высшего образования как эффективного метода развития региональной экономики неуклонно растёт. Примером этому служит экономический рост ряда стран, таких как Сингапур, Южная Корея и Финляндия, которые получили мировое признание благодаря высокой эффективности своей системы образования. В Сингапуре результаты научных исследований, проведённых высшими учебными заведениями, оказали огромное влияние на технологическое и инновационное развитие экономики страны<sup>25</sup>. Инвестиции в высшее образование, сделанные в Сингапуре за прошедший период, позволили стране перейти из числа наиболее отсталых государств в категорию наиболее развитых.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы одним из важнейших приоритетов обозначено позитивное влияние на экономику регионов через развитие сферы образования. В стратегии развитие человеческого капитала и подготовка квалифицированных кадров определены как ключевые направления, с акцентом на достижение регионального экономического роста за счёт совершенствования этой системы, привлечения технологических достижений и инноваций в экономику регионов, производства высокотехнологичной продукции и услуг, а также предложения конкурентоспособных товаров на мировом рынке. Кроме того, в стратегии поставлена цель повышения валового внутреннего продукта на душу населения за счёт обеспечения устойчивых темпов роста в отраслях экономики. Развитие системы образования и внедрение инновационных подходов играют важную роль в достижении этой цели. В целом, хотя Новая стратегия развития Узбекистана напрямую не затрагивает влияние образования на региональную экономику, достижение экономического роста за счёт развития сферы образования определено как одно из важных направлений стратегии<sup>26</sup>.

---

<sup>23</sup> World Bank (2023). *The Human Capital Project*. Washington, DC: World Bank.

<sup>24</sup> UNESCO (2023). *Global Education Monitoring Report*. Paris: UNESCO Publishing.

<sup>25</sup> Lee, K., & Goh, C. (2021). *Innovation and Economic Development: The Role of Education Systems in Singapore*. Singapore: National University Press

<sup>26</sup>"Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi," Prezident matbuot xizmati, president.uz

